

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 02/30.04.2021.B.79.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ABDULLAEVA JAMILYA KENESBAEVNA

**JANUBIY OROLBO‘YI QANDALALARI (HETEROPTERA) BIOXILMA-
XILLIGI VA EKOLOGIYASI**

03.00.10-Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus -2024

Falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Abdullaeva Jamilya Kenesbaevna

Janubiy Orolbo‘yi qandalalari (Heteroptera) bioxilma -xilligi va
ekologiyasi..... 3

Абдуллаева Жамиля Кенесбаевна

Биоразнообразие и экология клопов (Heteroptera) Южного
Приаралья..... 21

Abdullaeva Jamilya Kenesbaevna

Biodiversity and ecology of true bugs (Heteroptera)
Southern Aral Sea area..... 39

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 02/30.04.2021.B.79.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ABDULLAEVA JAMILYA KENESBAEVNA

**JANUBIY OROLBO‘YI QANDALALARI (HETEROPTERA) BIOXILMA-
XILLIGI VA EKOLOGIYASI**

03.00.10-Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus -2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2024.1.PhD/B612 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida info@aknuk.uz va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Saparov Abdiraxman Danabaevich biologiya fanlar doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Boymurodov Xusniddin Toshboltaevich biologiya fanlar doktori, professor
	Juginisov Tanirbergen Isaevich biologiya fanlar doktori, dotsent
Etakchi tashkilot:	Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.02/30.04.2021.V.79.01 Ilmiy kengashning 2024 yil “__” __ soat ____ dagi majlisida bo‘ladi (Manzil: 230100, Nukus shahri, Berdaq shox ko‘chasi 41, institut kichik majlislar zali. Tel: (+99861) 222-17-44, (+99861) 222-96-72, faks: (+99861) 222-17-44, e-mail: aknuk@mail.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__ raqam bilan ro‘yxatga olingan).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “__” ____ da tarqatildi.

(2024 yil “__” dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi)

Mambetullaeva Svetlana Mirzamuratovna
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., professor

Utemuratova Gulshirin Najimatdinovna
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.f.d. (PhD)

Ajiev Alisher Baxtibaevich
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar
raisi, b.f.d.(DSc)

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida sodir bo'layotgan iqlim o'zgarishlari, antropogen omillarning o'sib borishi va tabiiy ekotizimlarning kuchli o'zlashtirilishi hasharotlar bioxilma-xilligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, antropogen xududlarning kengayishi qishloq ho'jaligi ekinlarida zararkunanda hasharotlar va kasalliklarning ta'sir ko'lamini keskin ortib borishiga olib kelmoqda. Shunga ko'ra, Janubiy Orolbo'yida tarqalgan qandalalarning tur tarkibini aniqlash, kataloglarini tuzish, zararli va foydali turlari bioekologiyasi hamda trofik aloqalari, zoogeografik va landshaftlar bo'yicha tarqalishini izohlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari asosiy o'rindagi vazifa bo'lib turgan hozirgi vaqtda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar alohida e'tiborga molik. Garchi qandalalarning aksariyati zararkunanda hisoblansa-da, ammo ular orasida zararkunanda hasharotlarni qirib foyda keltiradigan turlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda hayvonot dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilish va zararkunandalarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "Markaziy Osiyoda ekologiya, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va tabiatni muhofaza qilish borasida hamkorlikni yangi bosqichiga olib chiqish" bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, Janubiy Orolbo'yi hududlarida tarqalgan qandalalar tur tarkibini aniqlash, turli landshaflarda tarqalishini, ekologik xususiyatlarini baholash va muhofazaga muxtoj turlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805 sonli "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 19 sentyabrdagi O'RQ-408 son «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi» Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 iyundagi 484-sonli «2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 noyabrdagi №-914 sonli «Hayvonot va o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy davlatlarida qandalalarning sistematikasi, biologiyasi, ekologiyasi, filogenezi va zararli turlariga qarshi kurash bo‘yicha B.Aukema (2000; 2005; 2006; 2007), W.Z.Cai (1991;1997;2001;2007), J.M. Carvalho (1956; 1973; 1981), G. Cassis (1989; 2000; 2002; 2010), T.J. Henry (1999; 2001; 2004), M. Josifov (1978; 1984; 2004; 2008), L.A. Kelton (1965; 1971; 1983; 1978), N.M. Andersen (1967;1995;2000), Yusunaga (1994;1997; 1999; 2004; 2011), N.Demrel (2009), R.E. Linnavuori (2000;2002; 2009; 2010; 2011), olimlari tomonidan qator izlanishlar olib borilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlaridan I.M Kerjner (1974; 1992; 1999; 2008), V.G.Puchkov (1977;1978), R.B. Asanova (1966), B.V. Iskakov (1976), I.S.Drapolyuk (1980), I.F.Zayseva (1997), N.N., Vinokurov., (1995), Ye. Valerevna (2008), P.A Yesenbekova (2013), V.B. Golub (1989), H.H. Muminov (1989), E.V. Kanyukova (1996; 2004; 2008; 2011) D.A. Gapon (2007; 2009; 2010; 2012; 2019), F.V. Konstantinov (1999; 2008; 2009; 2011; 2014;) A.M. Atakishieva (1988), R.S. Aglyamzianov (2006), olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikada mazkur sohada R.A.Alimdjanov (1960), M.M.Ostanova (1957), Ye.M.Soboleva (1957), A.Sh.Xamraev (1992;1993; 2000; 2003; 2005; 2011; 2012;), A.S.Boltabaev (1995), A.X. Qo‘chqorov (2007), Sh.T. Xo‘jaev (2017; 2018; 2019; 2020; 2022), N.R. Sattarov (2017; 2018; 2019; 2020; 2022), L.A.Ganjaeva (2022; 2023), M.J. Medetov (2022; 2023), G.S. Mirzaeva (2022; 2023), B.R. Xolmatov (2017; 2022; 2023), D.M.Musaev (2017; 2018; 2019; 2020; 2022; 2023) lar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va olib borilmoqda.

Biroq, yuqoridagi tadqiqot ishlari Janubiy Orol bo‘yi sharoitida olib borilmagan bo‘lib, qandalalarning tur tarkibi, zoogeografiyasi, turli landshaftlar va agrobiotsenozlarda tarqalishi, dominant turlarining bioekologiyasi, foydali va zararli turlarga ajratilib amaliyotga tadbiiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Nukus davlat pedagogika institutining «Shimoliy - g‘arbiy O‘zbekiston sharoitida hayvonotlar faunasini o‘rganish va natijalarini biologiya fanlarini o‘qitishda foydalanish imkoniyatlarini izlashtirish» istiqbolli mavzusi (2021-2026 yillarda) ilmiy mavzusi, O‘zR FA Zoologiya institutining (2021-2024) «O‘zbekiston yarimqattiqqanotli hasharotlarini (Hemiptera: Heteroptera) ekologik guruhlariga ajratish va hayotiy shakllarini tavsiflash» mavzudagi loyihasi hamda O‘zbekiston Milliy universitetining «Global iqlim o‘zgarishi sharoitida flora va faunaning bioekologik hossa-hususiyatlarini tadqiq qilish, bioxilma-xilligini saqlash, tuproq va suv resurslarining ekologik holatlarini baholash hamda tabiiy resurslardan

oqilona foydalanishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish» (2021-2023) ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Janubiy Orolbo‘yi qandalalari bioxilma-xilligini baholash, taksonomik strukturasi aniqlash, ekologiyasini asoslash va kadastr tizimi uchun ma’lumotlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Janubiy Orolbo‘yi qandalalarining tur tarkibini aniqlash, xilma-xilligini ekologik baholash va ekologik xususiyatlarini taxlil etish;

Qandalalar asosiy turlarining mavsumiy dinamikasini o‘rganish;

Qandalalarning ekologik, zoogeografik va turli landshaftlar bo‘yicha tarqalishini taxlil qilish;

Janubiy Orolbo‘yi qandalalarning kadastr tizimi ma’lumotlarini ishlab chiqish;

Janubiy Orolbo‘yida aniqlangan himoyaga muhtoj qandalalarni taxlil qilish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida Janubiy Orolbo‘yida tarqalgan qandalalar turlari olingan.

Tadqiqotning predmeti bioekologik xususiyatlari, qandalalarning faunasi, tarqalishi, bioxilma-xilligi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ekologik, entomologik, zoogeografik, va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Janubiy Orolbo‘yi hududlarida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida yarimqattiqqanotlilarning biologik xilma – xilligining zamonaviy holati baholanib, ularning 4 ta infraturkum, 13 katta oila, 22 oila, 35 kenja oila, 35 triba, 104 avlod, 3 kenja avlodga mansub 167 turi aniqlangan;

Janubiy Orolbo‘yidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida Reduvidae oilasiga oid *Reduvius* avlodiga mansub *Reduvius carinatus* Fabricus, 1798 O‘zbekiston faunasi uchun ilk bor aniqlangan;

O‘zbekiston “Qizil kitobi” ga kiritilgan Reduvidae oilasi *Reduvius* avlodiga mansub *Reduvius fedtchencianus* Oshanin 1871 hamda Coreidae oilasi *Cercinthus* Stal, 1860 avlodiga mansub *Cercinthus lehmanni* Kolenati, 1891 turlarining ilk bor Janubiy Orolbo‘yi hududlarida uchrashi isbotlangan;

birinchi marotaba Janubiy Orolbo‘yida tarqalgan yarimqattiqqanotli hasharotlarning zoogeografik va turli landshaftlar bo‘yicha tarqalishi aniqlangan;

O‘zbekiston yarimqattiqqanotsimon hasharotlari haqidagi yaratilgan, ma’lumotlar bazasiga Janubiy Orolbo‘yi uchun xos turlar bo‘yicha ma’lumotlar kiritilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Janubiy Orolbo‘yi hududlarining iqlimidan kelib chiqib, yarimqattiqqanotli hasharotlarning ekologik hususiyatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Janubiy Orolbo‘yi qandalalar bo‘yicha axborotlarni saqlovchi ma’lumotlar bazasi yaratilgan;

Janubiy Orolbo‘yi qandalalarining muhofozaga muxtoj turlarining monitoringini yuritish hamda O‘zbekiston “Qizil kitobi” ga kiritilgan *Cercinthus*

lehmannii va *Reduvius fedtschenkianus* turlarining yashash areali kengayganligi aniqlanib, uning maqomini o'zgartirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

Janubiy Orolbo'yi qandalalarning va foydali va zararli turlarga ajratilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda klassik va zamonaviy usullarning qo'llanilganligi hamda ilmiy yondashuvlar, taxlillar asosida olingan natijalarni nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, ularning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, ilmiy hamjamiyat tomonidan davlat fundamental loyihalarini bajarish davomida tan olinganligi, populyatsion ma'lumotlarni zamonaviy dasturlar asosida statistik tahlil qilinganligi, amaliy natijalarni vakolatli davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Janubiy Orolbo'yi qandalalari faunasini to'la tahlil qilinganligi va populyatsiyalari tarqalishining zamonaviy holati baholanganligi, qandalalarning ekologik monitoring qilinganligi, biologik xilma-xilligiga va O'zbekiston faunasi uchun yangi turning qayd qilinganligi asosan guruhlarining tavsiflanganligi va va ekologik xususiyatlari ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalarni tadqiqot hududidagi bioresurslaridan oqilona foydalanish yo'llarini ishlab shiqish, qishloq xo'jalik agrobiotsenozlarda tarqalgan zararkunandalarni qirib foyda keltiradigan foydali dominant turlari *Anthocoris angularis*, *Anthocoris pilosus*, *Orius niger*, *Orius horvathi*, *Nabis viridulus*, *Nabis palifer*, *Nabis fesus*, *Nabis punctatus*, *Nabis rugosus*, va qishloq xo'jalik ekinlariga zararli dominant *Adelphocoris lineolatus*, *Agnocoris rubicundus*, *Polymerus cognatus*, *Lygus gemellatus*, *Lygus punctatus*, *Lygus pratensis*, *Polymenus vulneratus* turlarini ajratishda qishloq xo'jaligida asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Janubiy Orolbo'yi qandalalari (Heteroptera) bioxilma-xilligi va ekologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

Janubiy Orolbo'yi hududlarida yarimqattiqqanotlilarning zoofaglardan 55 turi, ommaviy zararkunandalarni yo'q qilishda butun bir kompleks tarzda doimo ishtiroki ularning faoliyatlarini integrallashni samarali bo'lishini ta'minlashi bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi O'rmon xo'jaligi qo'mitasining Nukus, Qorauzyak, Mo'ynoq, Qung'iroq va Chimboy tumanlari amaliyotiga joriy etilgan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi O'rmon xo'jaligi qo'mitasi 2022 yil 2 dekabrda № 1-702 – son ma'lumotnomasi). Natijada, respublika hududlari bo'ylab O'rmon xo'jalik o'simliklari zararkunandalarini tartibga solishda va tabiiy biologik nazoratdagi jarayonda zoofag qandalalarning muhim rol o'ynashini aniqlash imkonini bergan.

Janubiy Orolbo'yidan tarqalgan qandalalarning 22 oilasi 104 avlodi tegishli bo'lgan 167 turga mansub 167 nusxa namunalari shulardan 4 ta noyob turlarini mansub jami 167ta namunalari respublikada yetakchi bo'lgan «Zoologiya kolleksiyasi» noyob ob'ektiga kiritilgan. (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2023 yil 24 fevraldagi № 4/1255-372-son ma'lumotnomasi).

Natijada namunalar Janubiy Orolbo‘yi hududlari bo‘yicha hasharotlar fondini boyitgan va ular populyatsiyalari tarqalishining zamonaviy holatini baholash, turli landshaftlarda tarqalishi va ekologiyasini o‘rganishda hamda interfaol atlaslar tayyorlash imkonini bergan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik Dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 6 ta respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya ishi kirish, besh bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmeti tavsiflangan, respublikaning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qandalalarni o‘rganishga doir (adabiyotlar tahlili)”** deb nomlangan birinchi bobi uchta bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limda qandalalarning faunasi va ekologiyasini dunyo miqyosida o‘rganilish darajasi bayon etilgan bo‘lib, unda qandalalarning dastlabki o‘rganilish tarixi, bugungi kundagi tur tarkibi, dominant turlar biologiyasi va ekologiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar o‘z ifodasini topgan. Ikkinchi bo‘limda qandalalarning geografik tarqalishi va biologiyasi, Markaziy Osiyo shuningdek, O‘zbekistonda bugungi kungacha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan. Uchinchi bo‘limda esa qishloq ho‘jaligi ekinlariga zarar keltiruvchi turlarining bioekologik xususiyatlari va ularga qarshi kurashda dunyo miqyosida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari bayon etilgan.

Xususan, qandalalar faunasi, bioekologik xususiyatlari va zararli turlariga qarshi kurash ishlari bo‘yicha adabiyot ma‘lumotlari tahlil etilgan.

Dissertatsiyaning **«Tadqiqotning materiali, usullari va ko‘lami»** deb nomlangan ikkinchi bobida yig‘ilgan material hajmi, tadqiqot materiali va tajriba o‘tkazilgan joy hamda qo‘llanilgan uslublar haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Tadqiqot ishlari 2021-2023 yillar davomida Janubiy Orolbo‘yining tabiiy va antropogen hududlarida olib borilgan. Ushbu davr mobaynida Janubiy Orolbo‘yi hududlarining ko‘plab koordinata nuqtalaridan Kirichenko (1957), ning qandalalarni yig‘ish va tur darajasini aniqlash hamda Golub V.B., Surikov M.N, Prokin (2012) larning hasharotlarni yig‘ish, kolleksiya tayyorlash va saqlash kabi

usullardan foydalanib, jami lichinka va imago bosqichidagi 5000 dan ortiq qandalalar yig‘ilib, O‘zbekiston milliy universiteti ekologiya kafedrasida va Zoologiya instituti Entomologiya laboratoriyasida tahlil qilindi.


Dissertatsiya ishining “**Qandalalarning biologik xilma-xilligining taksonlarga ajralish tavsifi**” deb nomlangan uchinchi bobida Janubiy Orolbo‘yida tarqalgan qandalalarning sistematik holatiga oid tadqiqot natijalari taqdim etilgan. Bu bobda qandalalarning turi, aniqlangan joyi va vaqtini, o‘simligi, bioekologiyasi va tarqalishi to‘g‘risida ma’lumotlar o‘z ifodasini topgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Janubiy Orolbo‘yi tabiiy va antropogen hududlarida tarqalgan yarimqattiqqanotli hasharotlarning 4 ta infraturkum, 13 katta oila, 22 oila, 35 kenja oila, 35 triba, 104 avlod, 3 kenja avlodga mansub 167 turi aniqlangan. (1-jadval).

1-jadval

Janubiy Orolbo‘yi yarimqattiqqanotli hasharotlari faunasining taksonomik tarkibi


Infraturkum	Katta oila	Oila	Kenja oila	Triba	Avlod	Kenja avlod	Tur
Cimicomorpha	3	6	14	14	42	-	72
Gerromorpha	1	2	4	1	3	1	6
Nepomorpha	6	6	5	3	6	-	10
Pentatomomorpha	3	8	12	17	53	2	79
Jami: 4	13	22	35	35	104	3	167

Janubiy Orolbo‘yi turli hududlaridan aniqlangan qandala turlarining eng ko‘pi Cimicomorpha infraturkumiga 6 ta oila (Anthocoridae, Cimicidae, Nabidae, Miridae, Tingidae, Reduviidae), 42 avlodga mansub 72 tur va Pentatomomorpha infraturkumiga 8 ta oila (Scutelleridae, Stenophalidae, Alididae, Rhopalidae, Geocoridae, Lygaeidae, Rhyparochromidae, Pentatomidae,) 53 avlodga mansub 79 turni o‘z ichiga olishi ma’lum bo‘ldi. Turlari suv va suv qirg‘oqlarida tarqalgan boshqa infraturkumlarga mansub qandala turlari sezilarli darajada kamligi (16 tur) aniqlangan (1-rasm).



1-rasm. Aniqlangan qandala turlarining infraturkumlar bo'yicha taqsimlanishi

Qandala turlarining oilalar kesimida taqsimlanishi bo'yicha Pentatomidae va Miridae oilalari yetakchilik qiladi. Pentatomidae oilasiga 5 kenja oila 30 avlodga mansub 50 tur (21.5%), va Miridae oilasiga 5 kenja oila 23 avlodga mansub 35 tur (20%). Boshqa Reduviidae 24 tur (14.3%) mansub ekani aniqlandi. Turlar soni eng kam oilalar Cimicidae, Pleidae, Belostomatidae (1 tadan tur), Alydidae, Nepidae, Gerridae, Hebridae (2 tadan tur) iga mansub ekanligi kuzatildi. (2-rasm).




2-rasm. Qandala turlari sonining oilalar kesimida taqsimlanishi

Ilmiy tadqiqotlar davomida O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan Coreidae oilasiga mansub *Cercinthus lehmannii* Kolenati, 1857 qandala turining yashash arealini kengaytirib, Qoraqalpog'iston respublikasining Qizilqum cho'llarida va Reduviidae oilasiga mansub *Reduvius fedtschenkianus* Oshanin, 1871 turlarining tarqalganligi aniqlanib, ularning hozirgi holati, tarqalishi bo'yicha qo'shimchalar kiritish uchun ma'lumotlar tayyorlangan.

Dissertatsiyaning “**Qandalalarning ekologik xususiyatlari, tarqalishi va mavsumiy rivojlanish dinamikasiga abiotik omillarning ta'siri**” deb nomlangan to'rtinchi bobi beshta bo'limdan iborat bo'lib, Janubiy Orolbo'yi qandalalarining bioekologik xususiyatlari, tarqalishi va qishki tinim davrini

(diapauza) o‘tkazish shakllari va ayrim turlari fenologik hususiyatlari va ularning rivojlanishiga abiotik omillarning ta‘sirini baholashga bag‘ishlangan tahliliga bag‘ishlangan. Bobning birinchi bo‘limida Janubiy Orolbo‘yidan aniqlangan hayotiy shakllari keltirilgan. Bunda qandalalar hayot shakliga ko‘ra 15 ta guruhlarga ajratilgan. Keltirilgan jadvaldan ko‘rinib turganidek aniqlangan qandalalarning 8 turi dendrobiont (4,7%), 3 turi, xorto-dendrobiont (1,7%), 1 turi tamno-dendrobiont (0,5%), 14 turi gerpetobiont (8,3%), 84 turi xortobiont (50%), 4 turi dendro-xortobiont (2,3%), 4 turi gerpeto-xortobiont (2,3%), 2 turi ektoparazit (1,2%), 20 turi epigeobiont (12%), 16 turi gidrobiont (9,5%), 1 turi evrixortobiont (0,5%), 1 turi evribiont (0,5%), 2 turi dendro-tamno-xortobiont (1,2%), 2 turi xorto-tamno-dendrobiont (1%), 5 tamnobiont (3%) ekani ma‘lum bo‘ldi. (3-rasm).



3-rasm: Qandalalarning hayotiy shakliga ko‘ra taqsimlanishi


Dissertatsiya ishi to‘rtinchi bobining ikkinchi bo‘limida Janubiy Orolbo‘yida tarqalgan qandala turlarining oziqlanish usullariga ko‘ra guruhlanishi o‘rganib chiqilgan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarida tadqiqot hududlaridan aniqlangan 167 ta qandala turlarini ozuqaga ihtisoslashish kengligiga qarab tahlil qilinganida ularning asosan 3 guruhga mansubligi aniqlangan.

I. Fitofaglar: 1. Polifag – ko‘p oilaga mansub o‘simliklar bilan oziqlanuvchi turlar 39 tani tashkil etadi. 2. Oligofitofag – bir necha oilalarga mansub o‘simliklar bilan oziqlanadigan turlar (10 tur). 3. Keng oligofitofag - turli avlod o‘simliklari bilan oziqlanadigan turlar kiradi (39 tur). 4. Tor oligofitofag - yaqin avlod o‘simliklari bilan oziqlanadiganlar (8 tur).

II. Zoofaglar yoki yirtqichlar – hayvonlar, hasharotlar va ularning tuxum hamda lichinkalari bilan oziqlanadigan turlar (47 tur).

III. Zoofitofaglar-asosan hasharotlar shuningdek o‘simlik bilan ham oziqlanadigan 24 ta tur (4-rasm). Bobning uchinchi bo‘limida qandalalarning yashash muxiti va hayotiy siklining asosiy tavsifi keltirilib, bunda Puchkov (1966), Asanova, Isakov (1976), Yesenbekova (2013) larning uslublaridan foydalanilgan. Tadqiqotlarda aniqlangan qandalalar turlarini 7 asosiy gigrofil,

evritopli mezofil, kserofil, kserofil galofil, mezofil, mezo-kserofil, ksero-mezofil guruhga mansub ekanligi aniqlangan.



4-rasm: Janubiy Orolbo‘yida tarqalgan qandala turlarining oziqlanish tipiga ko‘ra guruhlanishi

Bunda aniqlangan qandala turlarining yashash muhitiga ko‘ra 75 turi (45%) Mezofil, 28 turi (16,7%) kserofil, 2 turi (1,2%) Kserofil galofil, 38 tur (22,7%) Mezo-kserofil, 7 tur (4,1%) Ksero-mezofil, 1 tur (0,6%) Evritopli mezofil, 16 tur (9,5%) Gigrofil ekanligi ma’lum bo‘lgan(2-jadval).

2-jadval


Janubiy Orolbo‘yi qandalalarning yashash muhitiga ko‘ra guruhlanishi

№	Yashash muhiti	Tur soni	% da
1	Mezofil	75	45
2	Kserofil	28	16,7
3	Kserofil- galofil	2	1,2
4	Mezo-kserofil	38	22,7
5	Ksero-mezofil	7	4,1
6	Evritop mezofil	1	0,6
7	Gigrofil	16	9,5
Jami:		167	100

Tadqiqotlar davomida fenologik kuzatuvlar hamda adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, Janubiy Orolbo‘yi yarimqattiqqanotlilari faunasining rivojlanish tsiklini quyidagi 5 ta asosiy guruhga ajratish mumkin bo‘lgan. Bular bir yilda bir avlod beruvchi (monovoltin) turlar, yilda ikki avlod beruvchi (bivoltin) lar, yilda 3 avloddan ortiq (polivoltin) turlar, ikki yilda bir avlod beradigan va yillik generatsiya miqdori noma’lum turlarga ajralishi aniqlangan.


To‘rtinchi bobning to‘rtinchi bo‘limi Janubiy Orolbo‘yida tarqalgan qandalalarning landshaftlar va zoogeografik tarqalishiga bag‘ishlangan. Bunga asosan, tadqiqotlar olib borilgan hududlarda aniqlangan qandalalarni 4 landshaft (agrolandschaftlar, cho‘l va chalacho‘l, to‘qay va suv va suv qirg‘oqlari) kesimida tahlil qilingan. Respublikamizning Janubiy Orolbo‘yi turli hududlaridan

aniqlangan 167 turga mansub yarimqattiqqanotli hasharotlarning landshaftlar bo'yicha tarqalishiga ko'ra landshaftlarida agrobiotsenozlarda 66 tur (39,5%), cho'l va chala cho'l hududlarida 96 tur (57,5%), to'qaylarda 42 tur (25,1%) va suv va suv qirg'oqlarida 16 tur (9%) da uchrashi aniqlangan (5-rasm).




5-rasm. Janubiy Orolbo'yi qandala turlarining landshaftlar bo'yicha taqsimlanishi

Tadqiqotlarimiz davomida Janubiy Orolbo'yining Qizilqo'm, Nukus tumani, Chimboy tumanlarining cho'l va chalacho'l hududlarida tarqalgan qandala turlarini o'rganish maqsadida tadqiqotlar olib bordik. Biz, qandalalarning zoogeografik tarqalishini yuqoridagi mualliflarning ishlari asosida taxlil qilib chiqdik. Unga ko'ra aniqlangan turlarimizning 90 % dan ortig'i Palearktik regioniga hosligi o'rganilgan. Ushbu vaziyatdan kelib chiqib, biz Janubiy Orolbo'yida tarqalgan qandalalarning Kerzhner va Josifov hamda Linnavuorilarning ilmiy ishlari asosida aniqlangan turlarni Palearktik oblastda zoogeografik tarqalishini taxlil qilingan. Palearktik oblastida tarqalgan qandalalarni yuqorida keltirilgan avtorlarning tuzgan kataloglari asosida 4 ta guruhga ajratdik. Bular Yevropa-Sibr, Qadimgi o'rta yer, Eron-Turon, Uzoq Sharq mintaqalariga hos bo'lgan turlarga ajratilgan (6-rasm).



6-rasm. Janubiy Orolbo'yi qandalalarining zoogeografik tarqalishi


Bizning materiallarimizda qandalalarning turlar tarkibi, asosan palearktik oblastga mansubligi, ushbu hasharotlar faunasining tashkil topishi va tarqalishi, bir necha mintaqalarda amalga oshganligidan dalolat bermoqda. O‘zbekistonning dunyo xaritasidagi geografik joylashishi O‘rta yer dengizi mintaqasiga to‘g‘ri keladi. Shu sababli ham olib borgan tadqiqotlarimizda aniqlangan qandalalar turlarining eng ko‘pi (39 tur) shu hududlarda tarqalganini ko‘rish mumkin. Shuningdek janubiy Orolbo‘yining tabiiy iqlim sharoiti hamda Ustyurt tekisligi Qozog‘iston - Mang‘istov mintaqalariga bog‘langani *Liorhyssus hyalinus*, *Anthocoris pilosus*, *Nesidiocoris tenuis*, *Reduvius testaceus*, *Chorosoma gracile*, *Beosus quadripunctatus*, *Peribalus strictus capitatus*, *Tarisa subspinosa subspinosa* kabi turlarning keng tarqalishiga sabab bo‘lganini ko‘rish mumkin. Mazkur bobning beshinshi bo‘limida qandalalarning qishki tinim davrini o‘tkazish shakllari ishlab chiqilgan (7-rasm).



7-rasm. Qandala turlarining qishki tinim davrini o‘tkazish shakllari

Aniqlangan qandala turlarining tinim davrining 132 turi (80%) imago, 24 turi (14,3%) tuxum, 8 turi (5, %) lichinka, imago+lichinka 2 tur (1,2%), 1 tur (0,6%) imago+lichinka+tuxum ekanligi ma‘lum bo‘ldi. O‘rganilayotgan hududning iqlimi 1990 yildan 2023 yilgacha har o‘n yilligining o‘rtacha harorati va yog‘in miqdori olindi. 2022 va 2023 yil qish mavsumining o‘rtacha – eng sovuq hisoblanib - 40 gradus bo‘lganligi aniqlandi. Qandalalarning zichligi va soni 2020 yilgiga solishtirganimizda 2023 yili imago yoki lichinka bosqichida qishlovchi turlarida uch barovargacha kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan ko‘rinib turganidek qish mavsumida haroratning keskin tushib ketishi imago va lichinka bosqichidagi qandalalarga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, ularning sonini sezilarli darajada kamaytiradi. Ayrim populyatsiya soni cheklangan, areali qisqarayotgan muhofozaga muxtoj *Reduvius fedtschenkianus* kabi turlarning hattoki yo‘qolib ketishi darajasigacha olib kelishi mumkin.


Bopning oltinshi bo‘limida abiotik omillarning qandalalar biologik xilma-xilligining mavsumiy dinamikasiga ta‘sirini baholash ko‘rsatilgan. Janubiy Orolbo‘yi hududida tarqalgan 167 ta qandala turlarining foal davrlarini oylar kesimida ko‘rsatilgan (8-rasm).



8-rasm. Qandalalarning faol davrlari oylar kesimida


Bunda mart oyining ikkinchi dekadasi to‘qqizta tur foallasha boshlagan bo‘lsa, may oyining ikkinchi dekadasi 139 ta tur foal tarzga o‘tgan. Iyul oyining boshiga kelib turlar soni imago boshqichida qishlovchi turlar o‘rnini yozgi turlar egallashi bilan izohlash mumkin. Noyabr oyiga kelib qish mavsumida qishlovchi turlar 140 ta bo‘lishiga qaramay harorat minusga tushishi sababli faqat uchta tur foal holatda bo‘lishi aniqlangan.

Bundan tashqari qandalalarning *Nabis palifer*, *Deraeocoris punctulatus*, *Adelphocoris lineolatus*, *Lygus pratensis*, *Coranus aegyptius*, *Rhynocoris iracundus*, *Reduvius fedtschenkianus*, *Dolycoris penicillatus*, *Eurydema ornata*, *Eurygaster integriceps* kabi o‘nta turning fenologik kartalari tuzildi. O‘nga ko‘ra 2023 yilda haroratning keskin sovushi bularda sonining kamayishi bilan bir qatorda faollik davrining ham 15 kungacha kechikkanligini ko‘rishimiz mumkin. Qandalalarning zichligi va sonini 2020 hamda 2023 yillar kesimida solishtirib tahlil qilganimizda 2020 yilning may oyining boshida 140 dona bo‘lgan bo‘lsa, oktyabr oyida bu ko‘rsatgich 25 donagacha kamayib boradi (9-rasm).




9-rasm. Qandalalarning 2020 yilgi zichligi

2023 yilda haroratning pasayishi bilan qandalalar soni 2020 yilga nisbatan uch martagacha kamaygan.



10-rasm. Qandalalarning 2023 yilgi zichligi


Reduvius fedtschenkianus kabi tunda foal turlarini (11-rasm) yorug‘lik jalb qilish orqali o‘rganganimizda 2022 yili uch soatda bir dona aniqlangan bo‘lsa, 2023 yili bu tur umuman tadqiqotlar davomida aniqlanmaganligidan bu turni sovuq harorat qish mavsumida hattoki qirib yuborish darajasigacha olib kelishi mumkin..



11-rasm. Tunda faol qandala turlarining uchraydigan vaqti

Shunday qilib, hasharotlarning faolligi ma‘lum harorat chegaralari bilan cheklangan. Aynan shu narsa unumdorlik, rivojlanish bosqichining davomiyligi, oziqlanish, harakatchanlik, o‘lim darajasining kamayishi yoki oshishini belgilaydi, shuning uchun har bir tur o‘z rivojlanishi uchun ma‘lum miqdorda issiqlik energiyasini hamda namlikni talab qiladi.

Dissertatsiyaning “Janubiy Orolbo‘yi yarimqattiqqanotli hasharotlarini monitoring qilish va kadastr tizimi ma‘lumotlarini shakllantirish” deb nomlangan beshinchi bobi o‘ch bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limda Janubiy Orolbo‘yida yarimqattiqqanotli hasharotlarining monitoringi qilingan. Hayvonot olamining davlat kadastr tizimi hayvonlarni davlat hisobini yuritish va ulardan sonli va sifatli ko‘rsatkichlar bo‘yicha foydalanish ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi. Hisobga olish umuman tabiiy va antropogen hududlar bo‘yicha olib boriladi (12-rasm).



12-rasm. Turlarning uchrash darajalari

Janubiy Orolbo‘yida tabiiy va antropogen mintaqalarida tarqalgan 167 turlaridagi yarimqattiqanotli hasharotlarning zichligi va soniga asosan 11 turi 6.6% juda kam, 25 turi 15% kam, 65 turi 39% doimiy uchrovchi tur, 27 turi 16.1% ko‘p, 39 turi 23.3% esa juda ko‘p turlar sifatida taqsimlanganligi aniqlandi va kadastr ma’lumotlari uchun taqdim qilingan. Biz tadqiqotlarimizda monitoring natijasida aniqlangan 167 ta turlarni mazkur hududda oldingi olib borilgan monitoring natijalari bilan qiyosiy taqqoslashda P. Jakkardning o‘xshashlik koeffitsienti yordamida aniqladik: bunda A.Hamraev 2003, 128 tur ($K_J=0,28.5$), T.Qulimbetova 1998 bilan esa 87 tur ($K_J=0,14.4$) va L.Ganjaeva 2022 149 tur ($K_J=0,33.2$) bilan yaqin ekanligi aniqlangan. (4 – jadval)

3 – jadval

Qiyoslanayotgan hududlarda yarimqattiqanotli hasharotlar o‘xshashlik koeffitsienti

Xududlar	Bizning tadqiqotlar	A.Hamraev 2003	T.Kulumbetova 1998	L.Ganjaeva 2022
Bizning tadqiqotlar	1	-	-	-
A.Hamraev 1992	0,28.5	1	-	-
T.Kulumbetova 1998	0,14.4	0,13.5	1	-
L.Ganjaeva 2022	0,33.2	0,51.8	0,23.6	1

Bu solishtirishlar o‘rtasidagi eng yaqin o‘xshash turlar A.Hamraev 2003, va L.Ganjaeva 2022 uxshash turlar soni 100 tani tashkil etib ($K_J=0,51.8$) bo‘lishi aniqlandi. Bu esa keyingi 30 yil davomida Janubiy Orolbo‘yi hududida mezofil turlarning kamayib, aksincha kserofil turlarning ko‘payganligidan dalolat beradi. “Qandalalarning Kadastr tizimini ishlab chiqish” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida hayvonat olami xilma – xillik ob‘ektlarining davlat ekomonitoringi parametrlarini o‘z vaqtida aniqlash, ekologik o‘zgarishlarni baholash, saqlash uchun salbiy jarayonlar va holatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf yetish maqsadida Janubiy Orolbo‘yi qandalalarining kadastr tizimi ishlab chiqilgan.

Ilk bor Janubiy Orolbo'yida tabiiy va antropogen mintaqalarida tarqalgan yarimqattiqqanotli hasharotlarning nazorat ro'yxati tuzilgan bo'lib, 4 ta infraturkum, 13 katta oila, 22 oila, 35 kenja oila, 35 triba, 104 avlod, 3 kenja avlodga mansub 167 turlaridan iborat kadastr ma'lumotlari kiritilgan.

O'chinchi bo'limda Janubiy Orolbo'yida aniqlangan yarimqattiqqanotli hasharotlarning muhofozaga muxtoj turlarini muhofoza qilish uchun kamayib borayotgan turlari bo'yicha olib borilgan monitoring natijalari, sistematik holati keltirilgan. Shuningdek, yarimqattiqqanotlilarni ekologik monitoring qilish davomida *Reduvius carinatus*, *Reduvius ciliates*, *Vachiria deserta*, *Coranus subapterus*, *Holotrichius apterus* turlarining ekologik holati baholandi va bu turlarning soni keskin darajada kamayib borayotganligi qayd qilingan.

XULOSALAR

1. Janubiy Orolbo'yida qandalalarning 4 ta infraturkum, 13 katta oila, 22 oila, 35 kenja oila, 35 triba, 104 avlod, 3 kenja avlodga mansub 167 turining bioxilma-xilligi baholandi va taksonomik tarkibi ilk bor keltirilgan.
2. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida ilk bor, Janubiy Orolbo'yidan Reduvidae oilasiga oid *Reduvius* avlodiga mansub *Reduvius carinatus* Fabricus, 1798 O'zbekiston uchun yangi tur; Reduvidae oilasiga oid *Reduvius* avlodiga mansub *Reduvius fedtchencianus* Oshanin 1871 Qizil kitobga kiritilgan tur; Coreidae oilasiga oid *Cercinthus* Stal, 1860 avlodiga mansub *Cercinthus lehmanni* Kolenati, 1891 Qizil kitobga kiritilgan va Miridae oilasiga oid *Auchenocrepis* avlodiga mansub *Auchenocrepis reuteri* Jakovlev 1876 O'zbekiston kolleksiyasida yo'q tulari aniqlangan.
3. Tadqiqotlarimiz natijasida Janubiy Orolbo'yi qandala turlarining ekologik guruhlanish asosan hayotiy tarziga ko'ra 15 ta, oziqlanishiga ko'ra 6 ta va hamda yashash muhitiga ko'ra 5 ta guruhlarga ajratildi va foyizlarda ko'rsatildi.
4. Aniqlangan qandalalarning 132 turi (79,6%) qishki tinim davrini imago, 23 turi (14,3%) tuxum, 9 turi (5,3%) lichinka, 2 turi (1,2%) imago+lichinka, 1 turi (0,5%) imago+lichinka+tuxum fazasida o'tkazishi aniqlandi.
5. Janubiy Orolbo'yi qandalalari yillik generasiya bo'yicha 100 turi (60%) monovoltin, 37 turi (22%) bivoltin, 23 turi (13,7%) turi polivoltin, 6 turi (3,6%) 2 yilda 1 avlod beradigan turlar ekani 1 turi (0,5%) hamda generasiyasi aniqlanmas 6 ta turi (4%) o'rganib chiqildi.
6. Ilk bor O'zbekiston Respublikasining Janubiy Orolbo'yida tabiiy va antropogen mintaqalarida tarqalgan yarimqattiqqanotli hasharotlarning nazorat ro'yxati tuzilib, 4 ta infraturkum, 13 katta oila, 22 oila, 35 kenja oila, 35 triba, 104 avlod, 3 kenja avlodga mansub 167 turlaridan iborat kadastr ma'lumotlari ishlab chiqilgan.
7. Respublikamizning turli hududlaridan aniqlangan yarimqattiqqanotli hasharotlarning landshaftlar bo'yicha tarqalishiga ko'ra agrobiotsenozlarda 66 tur

(39,5%), cho‘l va chala cho‘l hududlarida 96 tur (57,5%), to‘qaylarda 42 tur (25,1) va suv va suv qirg‘oqlarida 16 tur (9,0%) da uchrashi aniqlandi.

8. Janubiy Orolbo‘yi qandalalar sonining keskin ravishda kamayib borishi, ekologik omillar asosan, ularning biotoplarining o‘zgarishi yoki yo‘q qilinishi bilan bog‘liqligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.04.2021.В.79.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК
НУКУССКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

АБДУЛЛАЕВА ЖАМИЛЯ КЕНЕСБАЕВНА

**БИОРАЗНООБРАЗИЕ И ЭКОЛОГИЯ КЛОПОВ (НЕТЕРОПТЕРА)
ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ**

03.00.10 – Экология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Нукус -2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.1.PhD/B612

Диссертация выполнена в Нукусском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета [info @aknuk.uz](mailto:info@aknuk.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet»(www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Сапаров Абдирахман Данабаевич
доктор биологических наук (DSc), доцент

Официальные оппоненты: Боймуродов Хусниддин Тошболтаевич
доктор биологических наук (DSc), профессор

Жугинисов Танирберген Исаевич
доктор биологических наук (DSc), доцент

Ведущая организация: Гулистанстанский государственный университет

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2024 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.04.2021.B.79.01 при Каракалпакском научно-исследовательском институте естественных наук (Адрес: 230100, г. Нукус, Проспект Бердаха, 41, малый конференц-зал института). Тел.: (+99861) 222-17-44, (+99861) 222-96-72, факс: (+99861) 222-17-44, e-mail: aknuk@mail.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского научно-исследовательского института естественных наук.

Автореферат диссертации разослан: «_____» _____ 2024 г.

Регистрационный отчет № «_____» от «_____» _____ 2024

Мамбетуллаева Светлана Мирзамуратовна
Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.б.н., профессор

Утемуратова Гулширин Нажиматдиновна
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней, PhD б.н.

Ажиев Алишер Бахытбаевич
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученой степени доктора наук, д.б.н. (DSc)

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день изменение климата, рост антропогенных факторов и интенсивное освоение природных экосистем отрицательно сказываются на биоразнообразии насекомых. В частности, расширение антропогенных территорий приводит к резкому увеличению масштабов воздействия насекомых-вредителей и болезней на сельскохозяйственные культуры. В связи с этим разработка мер по определению видового состава, составлению каталогов, биоэкологии вредных и полезных видов клопов, а также по их трофическим связям, зоогеографическому и ландшафтному распределению в Южном Приаралье имеет важное значение.

В мире вопросы обеспечения продовольственной безопасности в мире являются основной задачей, особого внимания заслуживают мероприятия, проводимые по борьбе с насекомыми-вредителями при выращивании сельскохозяйственных продуктов. Хотя большая часть клопов являются вредителями, тем видам, которые приносят пользу, уничтожая вредоносных насекомых уделяется особое внимание.

В республике осуществляются широкомасштабные мероприятия по охране объектов животного мира и разработке мер борьбы с вредителями. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы¹ определены важные задачи по “выведению на новый уровень сотрудничества в области экологии, предотвращения загрязнения окружающей среды и охраны природы в Центральной Азии”. Исходя из этих задач, определение видового состава распространения в различных ландшафтах, оценка экологических особенностей и определение распространения видов клопов, нуждающихся в охране в районах Южного Приаралья, приобретают важное научно-практическое значение.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит для реализации задач, предусмотренных Постановлением Президента Республики Узбекистан ПП-4805 «О мерах по повышению качества непрерывного образования и результативности науки по направлениям «химия» и «биология»» от 28 января 2020 года, Закона Республики Узбекистан от 19 сентября 2016 года № УП-408 «Об охране и использовании животного мира», Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан за № 484 от 11 июня 2019 года "Об утверждении стратегии сохранения биоразнообразия в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годы", а также Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан за № 914 от 7 ноября 2018 года "О ведении государственного учета, учета объемов использования и государственного кадастра объектов животного и растительного мира", а также другими нормативно-правовыми документами, принятым в данной сфере.

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»,

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики: Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

Степень изученности проблемы. В зарубежных странах исследования по изучению систематики, биологии, экологии, филогенеза клопов и мерам борьбы против вредоносных видов проводили такие учёные, как В. Aukema (2000; 2005; 2006; 2007), W.Z. Cai (1991; 1997; 2001; 2007), J.M. Carvalho (1956; 1973; 1981), G. Cassis (1989; 2000; 2002; 2010), P.P.Chen (1999; 2006; 2002; 2011), W.L. Distant (1892; 1898; 1900), H. Ghahari (2009; 2002; 2011; 2014), T.J. Henry (1999; 2001; 2004), M. Josifov (1978; 1984; 2004; 2008), L.A. Kelton (1965; 1971; 1983; 1978), N.M. Andersen (1967; 1995; 2000), Yusunaga (1994; 1997; 1999; 2004; 2011), N.Demrel (2009), R.E. Linnavuori (2000; 2002; 2009; 2010; 2011) и другие.

В странах Содружества независимых государств исследования в этом направлении проводили такие учёные, как И.М. Кержнер (1974; 1992; 1999; 2008), В.Г. Пучков (1977; 1978), Р.Б. Асанова (1966), Б.В. Искаков (1976), И.С. Драполюк (1980), И.Ф. Зайцева (1997), Н.Н., Винокуров., (1995), Е. Валерьевна (2008), П.А Есенбекова (2013), В.Б. Голуб (1989), Н.Н. Муминов (1989), Э.В. Канюкова (1996; 2004; 2008; 2011) Д.А.Гапон (2007; 2009; 2010; 2012; 2019), Ф.В. Константинов (1999; 2008; 2009; 2011; 2014;) А.М.Атакишиева (1988), Р.С.Аглямзианов (2006).

